



## PEDAGOGIK FAOLIYATDA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUVNING ROLINI OSHIRISH USULLARI

Sultonov Sherzodjon  
Elmurodovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Keyingi o'n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim. 9 Olimlarning fikriga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki talabalarining kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda kompetentsiyaviy yondashuvning roli juda katta. Uning asosiy maqsadi talabalarda zamonaviy hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda kompetentsiyaviy yondashuvning ahamiyati va uning rolini oshirish usullari tahlil qilinadi.

Kompetentsiyaviy yondashuvning mohiyati. Kompetentsiyaviy yondashuv – bu o'quvchilar yoki talabalarni bilim bilan ta'minlashdan ko'ra ko'proq, ularda amaliyotda qo'llanadigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli hisoblanadi. Kompetentsiyaviy yondashuvning asosiy elementlari quyidagilar:

1. Bilim – fan bo'yicha nazariy ma'lumotlar.
2. Ko'nikmalar – olingan bilimlarni qo'llay olish amaliyoti.
3. SHaxsiy sifatlar – mas'uliyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik.
4. Hal qilish qobiliyati – muammolarni aniqlash va ularga yechim topish.

Bu yondashuv o'qituvchilardan talabalarga nazariy bilimni yetkazishdan tashqari, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliyotdagi masalalarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

Bulajak pedagoglarda kompetentsiyaviy yondashuvning ahamiyati.

1. Ilm va amaliyot uyg'unligi – kompetentsiyaviy yondashuv nazariyani hayotiy amaliyot bilan bog'laydi.

2. SHaxsiy rivojlanish – talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va ularning shaxsiy salohiyatini oshirish imkonini yaratadi.

3. Ijtimoiy moslashuv – talabalarni jamiyatdagi turli holatlarga tayyorlaydi.

4. Mehnat bozoriga moslik – kompetentsiyaviy yondashuv mehnat bozorida talab qilinuvchi mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Kompetentsiyaviy yondashuvning rolini oshirish usullari

1. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish: Debatlar, ijtimoiy tadqiqotlar, keys-stadilar va rol o'yinlari orqali talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Hamkorlikda o'qitish: Talabalarning guruhli faoliyatiga asoslangan yondashuv. Bu yorda talabalar o'zaro tajriba almashadilar va birgalikda yechim topadilar.

3. Masala yechishga qaratilgan yondashuv: Dars jarayonida haqiqiy hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Dasturiy ta'lim va raqamli texnologiyalardan foydalanish: Ta'lim jarayonini raqamli resurslar, simulyatsiya va onlayin platformalar orqali boyitish.

5. Refleksiya va o'zini-o'zi baholashni tashkil qilish: Talabalar o'z ishlarini tahlil qilishlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari uchun imkoniyat yaratish.

6. Ta'lim jarayonida kompetentsiyaviy modellardan foydalanish: Belgilangan kompetentsiyalarning yetishiga ko'maklashuvchi modullar, o'quv materiallari va amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqish.

Kompetentsiyaviy yondashuvning amaliy samaradorligi Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompetentsiyaviy yondashuv qo'llangan ta'lim jarayonida talabalar nafaqat bilimlarni, balki mustaqil ishlash, muammolarni hal qilish va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishganligi ma'lum bo'ldi. Bu yondashuv o'qituvchilarning ham innovatsion metodlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'minlaydi.

Demak, kompetentsiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning rolini oshirish pedagogik faoliyatning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish, hamkorlikda o'qitish, raqamli texnologiyalarni qo'llash kabi usullar mazkur yondashuvning samaradorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida bu yondashuvni keng qo'llash orqali mehnat bozoriga moslashuvchan, ijodiy va yetuk mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

2. Bermus A.G. Problemy i perspektivyi realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. www.eidoc.ru. 2005, 09, 1

3. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010.

4. Vdovina S.A. Professionalno pedagogicheskaya kompetentnost i yee struktura. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Perm – 2009.

5. Slastenin V., Isaev I., i drg. Pedagogika. Uchebnaya posobiya.